
Yaqin kunlarda UzAuto Motors hamda boshqa yirik davlat tashkilotlarining aktsiyalari fond birja orqali hammaga ochiq savdoda sotiladi

Oxirgi vaqtlarda fuqarolarimiz orasida “UzAuto Motors hamda boshqa yirik davlat tashkilotlarining aktsiyalari shu yaqin kunlarda fond birja orqali hammaga ochiq savdoda sotilar ekan” degan turli mish-mishlar tarqaldi.

Ushbu mish-mishlar qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan aniqlik kiritamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «[Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida](#)» 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son va «[Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida](#)» 2021 yil 13 apreldagi PF-6207-son Farmonlari hamda «Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2022 yil 17 yanvardagi PQ-90-son [qaroriga](#) muvofiq aktsiyalari birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy joylashtiriladigan korxonalar belgilangan bo‘lib, ushbu farmon va qarorlarning ijrosi yuzasidan yaqinda ya‘ni 15 avgust 2022 yilda “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aktsiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish to‘g‘risida” gi Vazirlar Mahkamasining 446-sonli qarori qabul qilingan.

Vazirlar Mahkamasining ushbu qarori bilan yo‘l xarita tasdiqlangan bo‘lib, yo‘l xaritada jami 21 ta davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aktsiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirilishi ko‘zda tutilgan. Ular orasida UzAuto Motors ham bor bo‘lib hammasini sanab o‘tadigan bo‘lsak quyidagicha:

- 1.«O‘zmetkombinat» AJ**
- 2.«Qurilishmashlizing» AJ**
- 3.«Uzbekistan Airways» AJ**
- 4.«O‘zbekinvest» AJ**
- 5.«O‘ztransgaz» AJ**
- 6.AT Xalq banki**
- 7.«O‘zagrosug‘urta» AJ**
- 8.«Qishloq qurilish bank» ATB**
- 9.«Agrobank» ATB**
- 10.«O‘zmilliybank» AJ**
- 11. «O‘zbekneftgaz» AJ**
- 12.«Mikrokreditbank» ATB**
- 13. «UzAuto Motors» AJ**
- 14.«O‘zavtosanoat» AJ**
- 15.AT «Aloqabank»**

16.«O‘ztemiryo‘lkonteyner» AJ**17.«O‘zbekiston pochta» AJ****18.«O‘zbekgeofizika» AJ****19.«Universal Sug‘urta» AJ****20.«Alskom» AJ****21.«Dori-Darmon» AJ**

Fuqarolarimizni qiziqtirayotgan «UzAuto Motors» AJ ni aksiyalarini sotuvga chiqarishni muddati qachongacha belgilangani va bu bo‘yicha ishlar olib borilayotgani yuzasidan quyidagilar ma‘lum qilinadi.

Yo‘l xaritani 19-tartib raqamida «UzAuto Motors» AJ ni aksiyalarini sotuvga chiqarish bilan bog‘liq amalga oshiriladigan ishlar aniq belgilab berilgan bo‘lib, dastlabki IPO ga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq mexanizmlar ya‘ni «IPO» uchun konsultantlarni, texnik shartlarni tayyorlash, tijorat va xizmat haqi bo‘yicha shartlarni kelishish uchun brokerlar va boshqa konsultantlarni aniqlash va jalb qilish, Aksiyalarni «Toshkent» respublika fond birjasining birja kotirovkalari ro‘yxatiga kiritish kabi ishlar uchun muddat 2022 yil sentyabr oyi belgilangan bo‘lib, hozirda AJ tomonidan anderrayter sifatida jalb etilgan “FREEDOM BROKER” tomonidan bu ishlar bajarildi va «Toshkent» respublika fond birjasiga listing bo‘lib kiritildi. Buni internetdagi birjani sayti orqali ham bemalol ko‘rish mumkin.

Biroq, yo‘l xaritadagi aksiyalar uchun dastlabki narx chegaralarini aniqlash, aksiyalarni qo‘shimcha chiqarilishini amalga oshirish, obuna kompaniyasi, «IPO» natijalarini sarhisob qilish va kabi tadbirlar uchun muddat Anderrayterlar va konsultantlar tavsiyasiga ko‘ra 2022 yil IV chorak — 2023 yil I chorakda kutilishi belgilangan bo‘lib, shunday ekan 2022 yil IV chorak boshlanishiga oz kunlar qolganligi sababli ushbu chorakda ham savdolar boshlanishi mumkin.

Fuqarolarimizni eng ko‘p qiziqtiradigan narsa aytaylik «UzAuto Motors» AJ yoki «O‘zbekneftgaz» AJ larni aksiyalarini oddiy fuqarolarimiz ham olishi mumkinmi? Yoki kimni puli ko‘p bo‘lsa ya‘ni faqatgina ayrim investorlarga o‘z oralarida bo‘lishib sotib olib qo‘yishi ham mumkinku? degan gumonlarga borishning hojati yo‘q. Chunki, davlatimiz tomonidan bunday yirik davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini fond birjasida birlamchi ommaviy joylashtirilishini o‘zi ham aynan shu kabi faqatgina oz sonli ayrim yirik investorlar tomonidan chiqarilgan aksiyalarni hammasini sotib olishni cheklaydi. Ya‘ni bunda aksiyalarni sotib olishni maksimal soni chegaralangan bo‘ladi, aytaylik maksimal 1000 dona aktsiya belgilansa sotib oluvchi ko‘pi bilan 1000 tagina (ozi bilan 1000 tadan kam-o‘zi hohlaganicha) aktsiya sotib ololadi xolos, bu esa o‘z navbatida mablag‘i ko‘p katta investorlarni hamma aksiyalarni olib qo‘yishni cheklab, har qanday oddiy fuqarolarimizga bemalol yurtimizdagi brokerlar orqali aksiyalarni elektron tartibda (cheklangan miqdorda) sotib olish imkoniyatini beradi.

Masalan «UzAuto Motors» AJ ni aksiyalarini sotib olmoqchi bo‘lgan fuqaro faqatgina “FREEDOM BROKER” orqali emas balki Toshkent fond birjasidan ro‘yxatdan o‘tgan brokerlik faoliyatini amalga oshirishga tegishli hujjatlari bo‘lgan respublikamizdagi hohlagan broker orqali hisob raqam ochib, hisob raqamiga pul qo‘yib hohlansa broker yordamida hohlansa o‘zi oddiygina internet tarmog‘iga ulangan noutbuk yoki telefon apparatidagi “FONDBOZORI.UZ” ilovasi orqali elektron tartibda Toshkent fond birjasiga

qo'yilgan hohlagan aksiyalarini sotib olishi mumkin.

Nasimbek Payg'amov

O'zbekiston tumani adliya bo'limi bosh maslahatchisi

2022-09-13 15:14:28